

ABDULHAMID SULAYMON O‘G‘LI CHO‘LPONNING YOSHLIGIGA NAZAR

Panjiyev Jahongir Shavkat o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti tarix yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

jahongirpanjiyev11@gmail.com

Annotatsiya: Cho‘lpon shaxsini o‘rganish, uning hayot yo‘liga aniqliklar kiritish uchun manbalarni tekshirish va taqqoslash zarur. Turli tortishuvlarga sabab bo‘lgan sana va holatlarga aniqliklar kiritilishi shart. Biz bu maqolada Cho‘lpon hayotiga manbalar asosida aniqliklar kiritishga harakat qilganimiz. Biz Cho‘lponni jadidchilik harakatida shijoatli shaxs ekanligini ko‘ramiz. Bizning ayni shu maqolamiz Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning yoshlik davriga aniqliklar kiritish va ijodga ilk qadamiga bag‘ishlanadi.

Abstract: It is necessary to check and compare sources in order to study the personality of Cholpan and clarify his life path. It is necessary to clarify the dates and circumstances that caused various disputes. In this article, we have tried to clarify Cholpan's life based on sources. We see that Cholpan is a passionate person in the Jadidist movement. Our same article is dedicated to clarifying the youth of Abdulhamid Suleiman's son Cholpan and his first steps towards creativity.

Kalit so‘zlar: Andijon, tug‘ilgan yil, yoshlik davri, zilzila, otasi va onasi, Foiqa, ilk ijodi;

Keywords: Andijan, year of birth, youth, earthquake, father and mother, Foiqa, first work;

Har bir ulug‘ adib va ijodkorning hayot yo‘li faqat uning shaxsiy faoliyati, umri va taqdirinigina emas, balki u mansub bo‘lgan millat, yashagan zamon silsilalarini ham aks ettiradi. Abdulhamid Cho‘lponning hayoti va ijodi bunga yorqin misoldir.

Ma'lumki, Cho‘lpon "Qalandar", "Mirzaqalandar", "Andijonlik" kabi taxalluslar bilan ijod qilgan. Uning tug‘ilgan yili haqida ko‘plab bahs-munozaralar mavjud. Jumladan, Cho‘lpon bilan hamkor va do‘sit bo‘lgan Vasiliy Yan uning tavalludini 1897-yil deb ko‘rsatadi[1]. Biroq, adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov Cho‘lpon 1893-yilda Andijonda savdogar oilasida tug‘ilgan[2], deb yozadi. Professor Naim Karimov, ayrim xotiralarga tayanib, Cho‘lponni 1898-yilda dunyoga kelgan deb hisoblaydi[4]. Shuningdek, Mutafakkirning singlisi Foiqa Sulaymon qizining o‘g‘li O‘.Mirzaxo‘jayev "Onamizning guvohlik berishicha, akasi Abdulhamid 1898-yilda tug‘ilgan, uning yili sak bo‘lgan. Andijon zilzilasi paytida (1902 yil), deb eslaydi onamiz, - tog‘ang to‘rt yashar bola ekan. Ammo hujjalarda nechanchi yil deb yozilgani menga ma'lum emas"[3], degan ma'lumotni yozadi. Agar Foiqa Sulaymon qizining 1908-yili tug‘ilganini, u dunyoga kelganda akasining o‘zi ham ancha yosh bo‘lganini e’tiborga olsak, Cho‘lponning tug‘ilgan yili haqidagi ma'lumotlar nechog‘lik aniq ekanligi haqida jiddiy o‘ylab ko‘rishga to‘g‘ri keladi. Ilm ahli tomonidan Cho‘lponning tug‘ilgan yili 1897-yil deb qabul qilingan. Cho‘lpon haqidagi barcha yozma manbalar - qomusiy dabiyotlar va 1937—1938-yillardagi tergov materiallarida uning tavallud sanasi 1897-yil deb qayt etilgan va shoir shu faktning to‘g‘riligini o‘z imzosi bilan tasdiqlagan. Lekin keksa avlod vakillari yaxshi bilishadiki, pasport olish rasm bo‘lgan XX asrning 20 - yillari oxiri — 30 - yillarning boshlarida kishilarning nafaqat tug‘ilgan sanasi,

hatto ism-sharifini yozishda ham qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yilgan. Shuning uchun ham keksalar, pasportdagi ma'lumotlardan ko'ra muchalga ko'proq ishonch bildirishgan[4]. Sadoi Turkiston gazetasining 1914-yil 24-sentyabrdagi sonida andijonlik "16 yoshlik talaba"ning Ismoil Gaspirali vafoti munosabati bilan yozgan she'ri bosilgan. So'nggi baytdagi "Hamidiy" taxallusi she'rning Abdulhamid Cho'lponga mansubligidan dalolat beradi. Va bu fakt uning 1898-yilda tug'ilganligini ko'rsatadi. Cho'lponni yaxshi bilgan zamondoshlaridan biri Mo'minjon Muhammadjonov "Tur mush urinishlari" nomli xotira romanida shoir bilan 1916-yilning kuzida bo'lib o'tgan birinchi uchrashuvini tasvirlab, "U o'n yetti - o'n sakkiz yoshlar chamasidagi yigitcha ekan", deb yozgan. Bu ma'lumot ham "Cho'lpon 1898-yil tavallud topgan", degan fikrni anglatadi.

Agar ota-bobolardan qolgan muchal hisobi bilan bu faktlarni bir-biri bilan taqqoslab ko'rsak, Cho'lponning shu vaqtga qadar aytib kelganimiz 1897-yili emas, balki 1898-yilning 21-martiga qadar bo'lgan vaqtda dunyoga kelgani ma'lum bo'ladi. Professor Naim Karimov o'zining "Cho'lpon" nomli ma'rifiy romanida bu masalani atroflicha o'rganib Cho'lpon tavalludini 1898-yil deb talqin qiladi[4].

1902-yilning 3-dekabr sanasida Andijonda daxshatli zilzila bo'lib o'tdi. Bu ofat Andijon binolarini tep-tekis qilib tashlagan edi. O'sha paytdan 280 yil oldin ham shunga o'xshash zilzila bo'lib o'tgan ekan. U zilzila Mashrab nomi bilan bog'liq hisoblanadi. 1902-yilgi Andijon zilzilasida Cho'lpon 4 yoshda bo'lgan, bu haqida Foiqa Sulaymonova xabar beradi. Bu zilzila bir necha daqiqagina davom etishiga qaramasdan butun shaharni tekislab tashlagan edi. Eski shahardagi vayronagarchilikning yanada vahimaliligi shundaki, ziliza sodir bo'lgan payti Ramazon oyi bo'lganligi uchun aksar mahalliy aholi tungi bedorlikdan so'ng qotib uqlab yotgan edi. Ular g'aflatda qolib, vayronalar tagida tiriklayin ko'mildilar. Ana shu daxshatli tabiiy falokat yuz bergan vaqtda ushbu maqolamiz qahramoni, zamondoshlarining so'zlariga qaraganda "podsholar ham piyoda boradigan joyda" bo'lgan. Shu payt shipdan nogoh otilib tushgan shox uning boshini g'urra qilgan. 1902-yil Andijon zilzilasi Cho'lponning boshida shu tarzda butun umr muhrlangan.

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon 1898-yilda go'zal vodiyning Andijon viloyati Qatorterak mahallasida dunyoga keladi. Abdulhamidning bobosi Yunus Abdurasul o'g'li, momosi esa Toji bibi hisoblanadi. Afsuski, bu shaxslar haqida ma'lumotlar juda oz hisoblanadi. O'zbeklarda oddiy kishilarning kasblariga qarab laqab berish odati borligi uchun ham Abdulhamidning otasi Sulaymonqul Bazzoz nomi bilan mashhur bo'lgan. Ya'ni uning kasbi savdogar bo'lganligi uchun ham bazzoz nomi bilan atashadi. Asl ismi esa Sulaymonqul mulla Muhammad Yunus bo'lgan. Sulaymonqul bazzozning muchali sak bo'lgan, bundan kelib chiqadiki u 1874-yili tug'ilgan. Sulaymonqul bazzoz o'z davrining ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy harakati - jadidchilikka hayrixoh bo'lgan va 1914 yildan boshlab "Sadoi Farg'ona" gazetasining Qo'qonda nashr etilishiga yaqindan yordam bergan. Sulaymonqul "Rasvo" hamda "Vola" taxalluslari bilan ham she'rlar yozgan, devon yaratgan hisoblanadi. Bu borada uning qizi Foiqa Sulaymonova qo'lida saqlanib qolgan qo'lyozma devon dalolat beradi. Onasi Oysha ayaning muchali gov(sigir) bo'lib, u 1880-yilda dunyoga kelgan. Oysha aya Qipchoqboyning qizi bo'lib, xat-savodsiz bo'lismiga qaramay, tag-tugli,

oq-qorani tanigan, zehn-farosatli, ko'pgina xalq qo'shiqlari-yu maqol va matallarni bilguvchi ayol edi. Sulaymonqul bazzoz va Oysha ayalar 14 ta farzand ko'rgan, ulardan 4 tasi eson-omon voyaga yetgan. Farzand tug'ilishi bilan tana nasaf olmasdan joni uzilavergan. Abdulhamid tug'ilganda hech bo'lmasa shu bolam dunyoda qolsin deb Sulaymonqulning onasi Toji bibi darvozani qoqib turgan lo'lini chaqirtirib oladi. Lo'lining qo'liga tesha berib chaqaloqning kindigini ostonaga urib kesdiradi. Shundan so'ng bu chaqaloq hayotda ota-onasi uchun qoladi. Cho'lponni yoshligidan ancha vaqtgacha Abdulhamid deb emas Teshavoy deb atashadi. Abdulhamiddan so'ng Sulaymonqul 3 ta farzand ko'radi. Ularning hammasi xolva (qiz) bo'ladi. Ular Abdulhamidning singillari Komila(1902) Fozila(1905) va Foiqa(1908)lardir[4].

Abdulhamidning dastlabki savodi eski maktabda chiqadi. U yashagan davrda Turkistonda rus-tuzem maktablari ochila boshlagan va unda dunyoviy ilmlar haqida ma'lumotlar berilganligi uchun mahalliy xalq vakillarining tushungan oilalari o'z farzandlarining istiqbolini o'ylab ana shunday maktabga e'tiborlarini qaratadilar. Jumladan, Cho'lpon ham bu maktablarda o'qitilgan rus tili va dunyoviy fanlarga qiziqib o'z bilimini davom ettirish maqsadida Toshkentga kelib o'qiydi. Uning rus tili bilan birga arab, forstojik va turkiy tillar bo'yicha savod chiqarishga ishtiyoqi baland edi. Bunday ko'p tillilik Cho'lponga falsafiy asarlarni aslida o'qish va mutolaa qilish imkonini berdi.

Cho'lpon 1914-yildan boshlab matbuotda faol ishtirot etdi: ilk ijodi "Sadoyi Turkiston" va "Sadoyi Farg'on'a" gazetalarida hamda "Oyna" jurnalida ko'rindi. Ma'lumotlarga ko'ra "Sadoyi Turkiston" gazetasining 1914-yil 18-aprel sonida e'lon qilingan "Turkistonli qardoshlarimizg'a" deb atalgan she'r Mutafakkir ijodining millatparvarlik ruhida yozilgan ilk namunasi sifatida ko'zga tashlanadi. Unda Cho'lpon "millatning fojiyaviy ahvoli ildizlarini johillikda, o'z foydasini anglamasligi-yu istiqbol haqida qayg'urmasligida ko'radi. Farzandlarini ma'rifatli qilish o'rniga koni isrof to'y-hashamlarga, bema'ni ayshu-ishratga berilgan, maktab o'rniga choyxona-yu mayxonalar bino qilayotgan xalq turmushini jaholatga yetaklagan millatlar turmushiga qiyoslab, o'rganadi"[5]. Cho'lponning bu kabi turmush tarzi bilan chiqisha olmasligi va xalqni ma'rifat va madaniyatga chorlashi uning ruhi yuksak ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan yo'g'rilganligidan dalolat beradi.

Biz Vatanga sadoqat nima ekanligi anglashimiz uchun Cho'lpon kabi bir qator vatanparvar insonlar tarixi va ilmiy merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu yo'lda yoshlarni badiiy barkamollikkha chorlashimiz zarurdir. Garchi Vatan qadrini anglab yetgan insonlargina uning rivojlanishi uchun doimiy harakatga tayyor bo'ladi xuddi Cho'lpon kabi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Большая Советская Энциклопедия. —М.: 1994.—684 с
2. Шарафиддинов О. Ижод йули / Ёшлиқ.-Тошкент, 1997.- №10.-Б. 48-49.
3. Шарафиддинов Озод. Ижодни англаш баҳти. -Тошкент: «Шарқ» нашириёт-матбаба акционерлик компанияси Баш таҳририяти, 2004.— 204 б.

4. Наим Каримов. Чулпон. "ШАРК" Нашриёт-матбая акционерлик компанияси бош таҳририяти Тошкент. 2003. 5 - 9 бетлар.
5. Куронов Д. Чулпон хаёти ва ижодий мероси. -Тошкент: Уқитувчи, 1997.-7 б.